



## SOLIQ SIYOSATINING BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING O'RNI

**Maxamatova Zarina**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

ORCID: 0009-0006-9495-3575

[zarina.m.zarinaxon@gmail.com](mailto:zarina.m.zarinaxon@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada soliq siyosatining barqarorligini ta'minlashda soliq imtiyozlarining o'rni va ahamiyati, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha mamlakatimizda amaldagi soliq turlari bo'yicha berilgan imtiyozlar tahlil qilingan, shuningdek, ularning budget daromadlariga ta'siri o'rganilgan. Soliq imtiyozlarining samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar hamda tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq siyosati, soliq imtiyozlari, soliq, soliq imtiyozlari samaradorligi, fiskal, barqarorlik, budget daromadlari.

## РОЛЬ НАЛОГОВЫХ ЛЬГОТ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СТАБИЛЬНОСТИ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ

**Махаматова Зарина**

Навоийский государственный горно-технологический университет

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль и значение налоговых льгот в обеспечении стабильности налоговой политики, рассматриваются преимущества, предоставляемые видами налогов, действующими в настоящее время в нашей стране, а также изучается их влияние на бюджетные доходы. Представлены научно-практические предложения и рекомендации по повышению эффективности налоговых льгот.

**Ключевые слова:** налоговая политика, налоговые льготы, налог, эффективность налоговых льгот, фискальный, стабильность, бюджетные доходы.

## THE ROLE OF TAX INCENTIVES IN ENSURING THE STABILITY OF TAX POLICY

**Makhamatova Zarina**

Navoi State University of Mining and Technologies

**Abstract.** This article analyzes the role and importance of tax incentives in ensuring the stability of tax policy, analyzes the benefits provided by the types of taxes currently in force in our country, and also studies their impact on budget revenues. Scientific and practical proposals and recommendations are presented to increase the effectiveness of tax incentives.

**Keywords:** tax policy, tax incentives, tax, efficiency of tax incentives, fiscal, stability, budget revenues.

### Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq siyosati davlatning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy moliyaviy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Soliq siyosati orqali davlat iqtisodiyot tarmoqlarini tartibga soladi, ijtimoiy sohani moliyalashtiradi hamda tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiradi. Ushbu jarayonda soliq siyosatining barqarorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar soliq tizimini soddalashtirish, uning shaffofligini oshirish va soliq siyosatining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu jarayonlarda soliq imtiyozlari muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Soliq imtiyozlari esa mazkur jarayonda iqtisodiyotni tartibga solishning ta'sirchan vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq soliq imtiyozlarini joriy etishda ularning samaradorligi, byudjetga ta'siri va uzoq muddatli natijalari doim ham yetarlicha ilmiy tahlil qilinmayotgani ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Shu bois soliq siyosatining barqarorligini ta'minlashda soliq imtiyozlarini chuqur tahlil qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq imtiyozlari — davlat tomonidan muayyan iqtisodiy yoki ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun soliq to'lovchilarga beriladigan yengilliklardir. Ularning asosiy maqsadi soliq yukini kamaytirish orqali iqtisodiy faollikni oshirishdan iborat.

### Adabiyotlar sharhi.

Soliq siyosatining barqarorligini ta'minlashda soliq imtiyozlarining o'rnini o'rganish borasida Aliyeva (2005) tomonidan soliq imtiyozi - soliq qonunchiligiga asosan soliq to'lovchilar uchun soliq yukini yengillashtirish imkoniyati (kamaytirish, chegirma, soliq krediti) beradi deb ta'rif keltirgan.

Milyakova (2000) quyidagicha ta'rif bergan "soliq imtiyozi - soliq to'lovchilarning alohida toifalariga boshqa soliq to'lovchilar bilan taqqoslaganda afzalliklar taqdim etish, jumladan, soliq, yig'imni to'lamaslik yoki ularni ozroq miqdorda to'lash imkoniyati".

Malikov (2019) o'z asarlarida soliq imtiyozlariga quyidagicha ta'rif berganlar, ya'ni, "soliq imtiyozlari - deganda soliq to'lovchining soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi tushuniladi".

Raxmatullayeva (2016) esa soliq imtiyoziga quyidagicha ta'rif bergan: "imtiyozlar - bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini qonun tomonidan belgilangan shaklda butunlay yoki qisman kamaytirishning yo'llari, huquqlari va majburiyatlari majmuidir".

Isayevning (2019) fikricha "soliq imtiyozlari - yuridik shaxslarning ayrim toifalarini soliqlar to'lashdan qisman yoki to'liq ozod qilish, yoki soliqlarni kamroq miqdorda to'lash uchun berilgan imkoniyatlardir".

Normizayevning (2022) fikricha esa, "Soliq imtiyozlari soliq mexanizmidagi eng muhim usullardan biri bo'lib, u iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirish, biznesni rivojlantirish yo'nalishini belgilab, jamiyatning ijtimoiy tuzilishini tartibga solish usulidir".

### Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning soliq siyosatini barqarorligini ta'minlash soliq imtiyozlarining o'rnini borasidagi maxaliy amaliyot va xorijiy dalatlar tajribalari masalalari bo'yicha izlanishlari, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma'lumotlarni tizimlash bo'yicha maxsus yondashuvlar, ya'ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimiz soliq qonunchiligida soliq imtiyozlari quyidagi yo'nalishlardan iborat:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- eksportbop va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish;
- erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rag'batlantirish;
- innovatsion va yuqori texnologiyali sohalarni rivojlantirish.

Soliq siyosati barqarorligini ta'minlashda soliq imtiyozlarining muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

- soliq imtiyozlari tadbirkorlik muhitini yaxshiladi. Xususan, kichik biznes subyektlari uchun belgilangan imtiyozlar ularning moliyaviy barqarorligini oshirib, rasmiy iqtisodiyotda faoliyat yuritishga qiziqishni kuchaytiradi.

- soliq imtiyozlarini qo'llash orqali investitsion jozibadorlik oshadi. Erkin iqtisodiy zonalarda amal qiluvchi soliq va bojxona imtiyozlari xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoit yaratib, uzoq muddatli investitsiya qarorlarini qabul qilishga turtki bo'ladi.

- iqtisodiy tarmoqlarni mutanosib rivojlantirishga erishiladi. Davlat tomonidan sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasiga berilgan soliq imtiyozlari iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni tezlashtiradi.

- soliq bazasining kengayishiga olib keladi. Qisqa muddatda byudjet daromadlari kamayishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda iqtisodiy faollikning oshishi hisobiga soliq tushumlari barqaror o'sib boradi.

Soliq imtiyozlari qisqa muddatda davlat byudjeti daromadlarini kamaytirishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda iqtisodiy faollikni oshirish orqali soliq bazasini kengaytiradi. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun joriy etilgan soliq imtiyozlari natijasida rasmiy iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi subyektlar soni ortib bormoqda.

Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalarda qo'llanilayotgan soliq imtiyozlari xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim rol o'ynamoqda. Biroq ayrim hollarda imtiyozlarning muddatsiz yoki aniq maqsadsiz berilishi soliq siyosatining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, soliq imtiyozlarining samaradorligi doimiy ravishda baholab borilishi va ularning iqtisodiy natijalari tahlil qilinishi lozim. Buning uchun soliq turlari bo'yicha berilgan soliq imtiyozlarini ko'rib chiqamiz. Asosiy berilgan soliq imtiyozlari *YSTB HSI* 2024-yilda 63 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 66 foizni tashkil etgan. Boshqa soliq to'lovchilarning ulushi 2024-yilda 37 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 34 foiz bo'lgan. Bundan ko'rinib turibdiki, yirik soliq to'lovchilarga berilgan soliq imtiyozlari oshgan. Soliq turlari bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari berilgan umumiy soliq imtiyozlariga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichlarga ega ya'ni, berilgan soliq imtiyozlarining 77 foizini tashkil etadi. Foyda solig'i esa 2024-2025 yillarda 11,1 foizdan 13,2 foizga oshgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, qolgan soliq turlari bo'yicha berilgan imtiyozlar pasayib borgan.

Shu bilan birga bir qatorda O'zbekistonda soliq imtiyozlarini qo'llash jarayonida ayrim muammoli va munozarali jihatlari ham mavjud. Jumladan:

- ayrim soliq imtiyozlari iqtisodiy samaradorligi yetarlicha baholanmasligi;
- soliq imtiyozlarini ko'p berilishi soliq tizimini murakkablashtirishiga olib kelishi;
- tadbirkorlik subyektlari tomonidan berilgan soliq imtiyozlaridan to'g'ri maqsadlarda foydalanmaslik holatlari mavjudligi.

Bu holatlar soliq siyosatining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli soliq imtiyozlarini berishda aniq mezonlar va monitoring tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

1-jadval

2024-2025 yillar davomida foydalanilgan soliq imtiyozlari to'g'risida soliq turlari kesimida  
MA'LUMOT

T/r	Soliq turi	2024 yil			2025 yil			Farqi	
		holatlar soni	summasi	Ulushi, (%)	holatlar soni	summasi	Ulushi, (%)	summa	O'sishi, (%)
<b>Jami</b>		<b>304 989</b>	<b>90 886,8</b>	<b>100%</b>	<b>259 012</b>	<b>119 079,7</b>	<b>100%</b>	<b>28 192,8</b>	<b>131,0</b>
I	YSTB HSI	760	57 655,0	63%	710	78 113,8	66%	20 458,8	135,5
II	Hududlar	304 229	33 231,8	37%	258 302	40 965,8	34%	7 734,0	123,3
<b>YalMga nisbatan</b>			<b>670 065,50</b>	<b>13,6</b>		<b>807 937,10</b>	<b>14,7</b>		<b>1,2</b>
1	Qo'shilgan qiymat solig'i	27 949	69 629,7	76,6%	24 451	91 667,7	77%	22 038,0	131,7
2	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	15 656	3 590,9	4,0%	15 166	3 531,1	3%	-59,9	98,3
3	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	20 087	2 256,8	2,5%	19 810	2 129,6	1,8%	-127,2	94,4
4	Foyda solig'i	41 673	10 131,0	11,1%	40 469	15 799,8	13,2%	5 668,9	156,0
5	Ijtimoiy soliq	98 379	3 169,4	3,5%	60 588	3 232,3	2,7%	62,8	102,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	48 780	1 711,2	1,9%	53 758	2 372,4	2,0%	661,2	138,6
7	Aylanmadan olinadigan soliq	50 612	296,3	0,3%	43 994	234,0	0,2%	-62,3	79,0
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 853	101,4	0,1%	776	112,8	0,1%	11,3	111,2

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Berilayotgan soliq imtiyozlarini samaradorligini oshirish maqsadida davlat tomonidan yo'qotgan soliq mablag'larini iqtisodiy foyda bilan solishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan;

- berilgan soliq imtiyozi summasini o'rganib borish va korxonada daromadini oshirishdagi ulushini tahlil qilib borish;
- korxonada yangi yaratilgan ish o'rinlari holatini o'rganib borish;
- investitsiya hajmining oshib borishini tahlil qilib borish;
- korxonada tomonidan eksport qilish natijasida olingan daromadlarining ortib borishiga erishish natijalari;
- so'ngi yillarda korxonada tomonidan to'langan soliqlar ortib borishi;

### Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, soliq imtiyozlari O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatining barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ular tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq soliq imtiyozlarining samaradorligini oshirish uchun ularni maqsadli, shaffof va iqtisodiy asoslangan holda qo'llash zarur. Faqat shu holdagina soliq siyosati barqaror va milliy iqtisodiyot uchun samarali bo'ladi.

Shunday ekan, O'zbekistonda soliq siyosatining barqarorligini ta'minlash va soliq imtiyozlarining samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni bildirish mumkin:

**Birinchidan**, soliq imtiyozlarini berishda aniq mezonlar va maqsadli ko'rsatkichlar belgilash zarur. Har bir imtiyoz iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish yoki eksport hajmini oshirish kabi ko'rsatkichlar bilan bog'lanishi kerak.

**Ikkinchidan**, soliq imtiyozlarining samaradorligini baholashning yagona metodologiyasini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu imtiyozlarni saqlab qolish yoki bekor qilish bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

### Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:

Aliyeva B.X. (2005) *Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnoe posobie*. – M.: Finansy i statistika. – 61 s.

Ashurova N.B. (2012) *O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati va soliq sohasidagi ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish yo'nalishlari // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekiston-respublikasi-soli-siyosati-va-soli-so-asidagi-izhtimoiy-amkorlikni-amalga-oshirish-y-nalishlari> (data obrazeniya: 04.05.2026).*

Ashurova N.B. (2017) *"O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish sharoitida tadbirkorlik faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirish"*. Monografiya. – N.: Alisher Navoiy.

Isayev F.I. (2019) *"Soliq tahlili metodikasini takomillashtirish"*. i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -116 bet.

Kodeks (2017) *O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi*. – T.: Adolat.

Malikov T. (2019) *"Davlat byudjeti va soliqlar"* – Toshkent: Iqtisodiyot. – 280 bet.

Milyakova N.V. (2000) *Nalogi i nalogooblajenie. Uchebnik. 7-ye izd. Pererab. I dop.* – M.:INFRA, 2008. S.33 Malikov T. *Soliqqa tortishning dolzarb masalalari*. – T.: 76-bet.

Normurzayev U.X. (2022) *Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. 08.00. 07 – Moliya, pul muomalasi va kredit. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati*. Toshkent.

Raxmatullayeva F. (2016) *"Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni rag'batlantirishdagi roli"* Moliya ilmiy jurnali №2. - 108 bet.